



1867-1872-YILLARDA ROSSIYA IMPERIYASI VA QO'QON XONLIGI O'RTASIDAGI ELCHILIK MUNOSABATLARINING PROGRESSIV DINAMIKASI

Boratov Dilshod Zokir o'g'li

O'zbekiston Milliy Universiteti 2-bosqich tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada Rossiya imperiyasi va Qo'qon xonligi o'rtasida olib borilgan diplomatik aloqalarning 1867-1872-yillardagi o'ziga xos jihatlari tahlil etilgan. Mazkur davrda yuz bergan elchilik aloqalarining faollashuvi, sabablar va tomonlarning siyosiy pozitsiyasi ilmiy jihatdan ochib berishi bilan birgalikda Rossiya va Qo'qon xonligi diplomatiyasining nozik jihatlari o'rganilgan.

Kalit so'zlar: Elchilik aloqalari, Rossiya va Qo'qon, K.P.Kaufman, Xudoyorxon, Sarimsoq xo'ja, A.V. Fon Shaufus, Muhammad Hakim dodho, Nasridinbek, B.M.Berg va Sh.Ibragimov elchiligi

PROGRESSIVE DYNAMICS OF DIPLOMATIC RELATIONS BETWEEN THE RUSSIAN EMPIRE AND THE KOKAND KHANATE IN 1867-1872

Abstract: This article analyzes the unique aspects of the diplomatic relations between the Russian Empire and the Kokand Khanate from 1867 to 1872. The study explores the activation of diplomatic relations during this period, the causes behind it, and the political positions of the parties, while also examining the delicate aspects of Russian and Kokand diplomacy.

Keywords: Diplomatic relations, Russia and Kokand, K.P. Kaufman, Khudoyar Khan, Sarimsoq Khoja, A.V. Fon Shaufus, Muhammad Hakim Dodkhod, Nasriddinbek, B.M. Berg, Sh.Ibragimov embassies.

ПРОГРЕССИВНАЯ ДИНАМИКА ДИПЛОМАТИЧЕСКИХ ОТНОШЕНИЙ МЕЖДУ РОССИЙСКОЙ ИМПЕРИЕЙ И КОКАНДСКИМ ХАНСТВОМ В 1867- 1872 ГОДАХ

Аннотация: В данной статье анализируются особенности дипломатических отношений между Российской империей и Кокандским ханством в 1867-1872 годах. Рассматривается активизация дипломатических отношений в этот период, причины этого и политические позиции сторон, а также исследуются тонкости российской и кокандской дипломатии.

Ключевые слова: Дипломатические отношения, Россия и Коканд, К.П. Кауфман, Худайор-хан, Сарымсок-ходжа, А.В. Фон Шауфус, Мухаммад Хаким Додхо, Насриддинбек, Б.М. Берг, Ш.Ибрагимов посольства.

Kirish. Ma'lumki, XIX asrning 60-yillariga kelib Rossiya imperiyasi va Qo'qon xonligi o'rtasidagi diplomatik munosabatlar keskinlashgan edi. Bu jarayonga bir necha harbiy va siyosiy omillar ya'ni Rossiya imperiyasining xonlik hududlarida bevosita harbiy harakatlarni olib borganligi qolaversa, 1867-yilda K.P.Kaufman gubernatorlik tarkibidagi Xojand shahriga tashrif buyurib ushbu shahardagi imperiya armiyasining harbiy tayyorgaligini ko'zdan kechirishi ortidan Qo'qon rasmiylari tomonidan bu harakatlar xonlikka qarshi hujum oldidan tayyorgarlik deb qabul qilinadi va o'z navbatida Xudoyorxon ham harbiy tayyorgarlikka asosiy urg'u berishiga sabab bo'lgan.

Ammo keyinchalik xon o'z hatti-harakatlari ortidan yanada sovuqlashgan munosabatlarni tartibga solish maqsadida 1867-yil noyabr oyida Sarimsoq xo'ja boshchiligida elchilarni Toshkentga yuboradi. Elchi sovg'a salomlar bilan birgalikda xon nomidan maxsus xat ham taqdim qiladi. Bu xatda xon o'zaro tushunmovchiliklar ortidan kelib chiqqan muommolarni hal qilish tarafdori ekanligini yozadi.[Галкин, 1921: 257] Bu xabarlar esa xonlikning General-gubernatorlik bilan munosabatlarni yaxshilashdan manfaatdor ekanligini anglatadi. E'tiborli jihati shundan iboratki, keskinlashgan munosabatlarni qayta tiklash tashabbuskori aynan Xudoyorxon hisoblangan. O'z navbatida, K.P.Kaufman faoliyatining ilk davrida Markaziy Osiyo xonliklari bilan tinchlik shartnomalarini imzolash uchun elchilar yuboradi va bu taklifga birinchilardan bo'lib Xudoyorxon munosabatga kirishadi. Bunga ham bir necha sabablar mavjud edi, jumladan, 1850-1860-yillarda rus armiyasining asosiy zarbalari Qo'qon xonligiga qaratilishi, xonlikdan tortib olingan yerlar asosida yangi General gubernatorlik tashkil qilinishi hamda Xudoyorxon o'z hukmronligini saqlab qolish maqsadida Rossiya imperiyasiga tayanishga intilishi dastlabki davrdagi iliqlikning asosi hisoblangan. [Почекаев, 2017: 296]

Tahlil va natijalar. 1867-yil dekabrda qo'qonlik elchilarning xonlik hududiga qaytishi bilan general gubernator ham o'z elchilarini general shtabi polkovniki A.V. Fon Shaufus yetakchiligida Xudoyorxon saroyiga yuboradi. [Котюкова., 2016: 27] Mazkur jarayon boshqa Markaziy Osiyo hududlari bilan olib borilgan diplomatik munosabatlarda ham ko'zga tashlanadi. Xususan, Imperiyaga yuborilgan muayyan elchilik faoliyati yakunlangach odatda Rus hukumati ham mazkur elchilikka javob tariqasi o'z diplomatik guruhini tashkil etgan. Masalan, 1857-yilda Said Muhammadxon Rossiyada Nikolay Pavlovichning o'limi munosabati bilan ta'ziya bildirish va yangi hukmdor Aleksandr Nikolayevichga tabrik xati yo'llash maqsadida shayxulislom Fozil Xo'ja Islom Xo'jani yuborgadi va keyinchalik mazkur elchilikka javoban Aleksandr II N.Ignatyev boshchiligida elchilarini Xivaga yuborgan edi.[Халфин, 1974: 368] Aytish mumkinki, garchi Markaziy Osiyo hududidagi davlatlar bilan olib borilgan

elchilik aloqalari mazmunan bir-biridan farq qilsada, diplomatik etiketlar va an‘analariga ko‘ra umumiylikka ega edi.

A.V. Fon Shaufus boshchiligidagi mazkur elchilik guruhi zimmasiga Qo‘qon xonligiga boradigan yo‘llar haqida imkon qadar aniqroq ma‘lumotlar to‘plash, hududdagi qazilma boyliklar mavjudligini o‘rganish, davlatlar o‘rtasidagi savdo aloqalarini tiklash va kerakli shartnomani imzolash vazifalari yuklatilgan edi. Xon saroyida qabul qilingach, elchi Turkiston general-gubernatori tomonidan xonga taqdim qilish uchun iqtisodiy munosabatlarni ko‘zlovchi shartnoma matnini taqdim qiladi. Ushbu loyihada quyidagilarni ko‘rish mumkin;

- Qo‘qon xonligining barcha shahar va qishloqlari rus savdogarlari uchun ochiq bo‘lishi;
- Ikki tomon savdogarlari ikkinchi tomonga kelishganda istalgan savdo karvonsaroylarida turish imkoniyatini berish;
- Rus savdogarlari uchun o‘z faoliyatlarini rivojlantirish maqsadida agentliklar tuzishga imkon berish, Qo‘qonlik savdogarlarga ham Turkiston hududida bunday imkoniyatni yaratish;
- Xonlik savdogarlariga Turkiston va u orqali imperiyaning boshqa barcha hududlariga o‘z tovarlarini olib o‘tish uchun 2,5% boj solig‘ining joriy etilishiga kafolat berish;
- Rus savdogarlariga xonlik hududi orqali uchunchi davlat hududiga o‘tish imkoniyatini yaratish.[Топилдиев, 2007: 107]

Bu kabi bandlardan anglashinadiki, imperiyasi hukumati endilikda Qo‘qon xonligini bilan iqtisodiy aloqalarni kuchaytirish, o‘z hukmronligini mustahkamlash va xonlik hududi orqali uchinchi davlatga savdo aloqalarini yo‘lga qo‘yish fonidagi diplomatik aloqalarni olib borgan. Ammo yuqoridagilardan tashqari missiyaga yuklatilgan vazifalarning eng muhimi bu yer osti boyliklarini o‘rganish hisoblangan. Elchilik rahbari bu masala yuzasidan xonga murojaat qilishiga qaramasdan, xon turli bahonalar bilan ushbu taklifni rad etishga harakat qilgan.

Ammo shunga qaramasdan ushbu davrda Rossiya-Qo‘qon elchilik aloqalarning ijobiy tus olganligini tadqiqotchilar ham e‘tirof etishadi. Bu jarayonning amaliy ifodasi tez orada nomyon bo‘ldi, jumladan, 1868-yil yanvarda Qo‘qon xoni Xudoyor bilan savdo shartnomasini imzolaydi. Ushbu savdo shartnomasida bir qancha muhim jihatlar qayd etib o‘tiladi. Masalan, rus va qo‘qonlik savdogarlarga Rossiya va Qo‘qonda tinch va erkin savdo qilish huquqi berildi, boj solig‘i esa olib kiriluvchi tovarlar tan narxining 2,5% dan oshmasligi belgilandi, Qo‘qondagi rus savdogarlariga tegishli mulklar imperiya nazoratiga o‘tdi. Rossiya imperiyasi savdo vakillarining faoliyati va xavfsizligi masalasi to‘liqligicha Xudoyorxon zimmasiga yuklatiladi. [Катковъ, 1897: 733]

Aynan mazkur omil imperiya armiyasining Qo‘qon xonligi hududlarida harbiy harakatlar olib bormasligiga sabab bo‘lgan edi. XIX asr 60-yillarining oxiriga kelib Rossiya imperiyasi va Qo‘qon xonligi o‘rtasidagi elchilik aloqalarida jiddiy ijobiy natijalar ko‘zga tashlanadi. Xususan, 1869-yilda Turkiston General-gubernatori huzurida xonlikning rasmiy vakili faoliyat

yurita boshlaydi. Ushbu lavozimga dastlab Muhammad Hakim dodho tayinlangan bo‘lib, mazkur voqeadan keyin ikki mamlakat o‘rtasidagi elchilik almashinuvlari faollashganligini ko‘rsatadi. Ammo shunga qaramasdan imperiya rasmiylari ushbu vakilning faoliyatidan to‘liq qoniqish hosil qilishmaydi, sababi Muhammad Hakim ushbu lavozimga tayinlanganligiga qaramasdan amalda savdo va siyosiy aloqalar yuzadidan biror bir amaliy harakat olib bormagan. Jumladan, 1872-yilning 27-yanvardan 15-fevralga qadar bo‘lgan vaqt davomida xonlik shahzodasi Nasriddinbek Toshkentga xonlik elchisi sifatida tashrif buyurishi ham shu holat bilan bog‘liq edi. Xonzodaga hamrohlik qilish uchun diplomatik guruh tarkibiga Mulla Muhammad Iso va Mulla Turdi Ali tayinlangan bo‘lib, qo‘riqchi harbiylar bilan birgalikda guruh a‘zolarining soni 300 nafarga yetgan. Elchi guruh xonlik chegaralaridan chiqishi bilan imperiya chegara shahri hisoblangan Xo‘jandga, so‘ngra Karmana uezdi orqali 27-yanvarda Toshkent shahriga yetib kelishadi va general gubernator nomidan V.Struve tomonidan kutib olinadi. E‘tiborli jihat shundan iboratki V.Struve 1870-yil sentabr oyida Qo‘qon xonligida bo‘lgan va Nasriddinbek bilan yaqin munosabat o‘rnatgan edi. Xonzodaning kutib olinishiga ayana uning tayinlanishi ham ushbu elchilikka imperiya tomonidan alohida ahamiyat qaratilganligini ko‘rsatadi. [Туркестанские ведомости. 7 февраля 1872. № 6. с. 27]

28-yanvar kuni K.P.Kaufman uyida qabul qilingan Nasriddinbek general gubernatorga Xudoyorxonning do‘stona salomlarini yetkazish bilan birga, xon oilasining kichik vakili 6-yoshli Umarbekning sunnat to‘yiga taklif etish bahonasida xonlikning valiahdi sifatida o‘zini tanishtirishga harakat qilgan. [Козинцев, 2022: 20] O‘zaro muloqot davomida K.P.Kaufman Xudoyorxon davrida uning davlati bir pog‘ona yuksalganligini aytib, xatto xon faoliyatini birinchi rus imperatori Pyotr I ga o‘xshatishini ma‘lum qiladi. [Топилдиев, 2007: 105] Qolaversa, 5-fevral kuni tashkil etilgan ziyofat davomida general gubernator va imperiya rasmiylari Aleksandr II dan so‘ng, aynan Xudoyorxon nomiga qadah so‘zi aytilishi ham ushbu davrda Rossiya-Qo‘qon elchilik munosabatlarida ilqlik davri bo‘lganligini ko‘rsatadi. [Топилдиев, 2007: 105] Shuningdek, bunga qadar xon imperator tomonidan javoxir yulduzli birinchi darajali Stanislav ordeni bilan ham taqdirlanishi imperiya Qo‘qon humdori Xudoyorxonning faoliyatidan va u bilan aloqalardan to‘liq mamnun ekanligini ko‘rsatadi.

O‘z navbatida, ushbu do‘stona munosabatlarning yo‘lga qo‘yilishiga asosiy tashabbuskorlardan biri bu general-gubernatorlik rasmiylari hisoblanadi. Jumladan, xonzoda Nasriddinbek Toshkentga tashrifi davomida unda yaxshi taasurol qoldirish maqsadida rus rasmiylari tashabbusi bilan fotografiya xizmatidan foydalanib uning portreti shakllantirilishi, maxsus ot fermasiga olib borib unga egarlangan ot sovg‘a qilinishi yoki topografiya markaziga tashrifi davomida unga ulkan globusning ko‘rsatilishi ham ushbu maqsadda amalga oshirilgan diplomatik usullar sifatida baholanadi. [Туркестанские ведомости. 7 февраля 1872. № 6. с. 27]

1872-yil 13-fevralda Nasriddinbek boshchiligidagi xonlik rasmiyalari Toshkentdan qaytishi munosabati bilan K.P.Kaufman ushbu guruhni Qo‘qonga qadar kuzatib borish hamda xonlikda davom etayotgan to‘y marosimida qatnashish uchun B.M.Berg va Sh.Ibragimovlarni elchi sifatida yuboradi. Ushbu elchilik 1872-yil 19-fevraldan 5-martga qadar Qo‘qon

xonligidagi rus elchisi sifatida faoliyat yuritishgan. [Козинцев, 2022: 23] Elchilikning tashkil etilishi ham shaklan javob elchiligi sifatida qaralsada, XIX asr 70-yillarining boshiga kelib Rossiya-Qo‘qon munosabatlarida “iliqlik davri” boshlanganligini ko‘rsatadi. Mazkur holat B.M.Berg va Sh.Ibragimov boshchiligi elchilikning Qo‘qondagi faoliyatida ham ko‘zga tashlanadi. Xususan, 28-fevral kuni xonlik saroyiga taklif qilingan elchilar Xudoyorxonning akasi Sulton Murodbek va xonzoda Nasriddinbek tomonidan kutib olingan xonaning jihozlanishi to‘liq yevropacha ekanligi, shuningdek xonlikda mehmondo‘stlik ramzi sanaluvchi choy bilan birgalikda garchi sulola vakillari tomonidan istemol qilinmasada elchilar uchun maxsus tamaki mahsulotlari keltirilganligidan hayratlanishadi. [Туркестанские ведомости. 22 май 1872. № 20. с. 80] Aslida, imperiyadan tashrif buyuruvchi diplomatik vakillarda yaxshi taasurot qoldirishga harakat qilish va bu yo‘lda turli musiqachilar, xalq tomoshalari, noodatiy hayvonlarni ko‘rsatish, taomlanish, imperiya fuqarolari bilan uchrashuvlar kabi usullardan foydalanish boshqa Markaziy Osiyo davlatlari singari Qo‘qon xonligida ham mavjud edi. Bu holat 29-fevral kuni yanada aniqroq ko‘zga tashlanadi. Gap shundaki ushbu kunda elchilar sharafiga tashkil etilgan bayram tadbirlarida dorboz yigitlarning tomoshalari, musiqachilar ijrosi, shuningdek kechasi mushabozliklar ham amalga oshirilganligi ma‘lum. Ushbu jarayonda minglar sulolasi vakillarining nozik diplomatik yondashuvlari ham ko‘zga tashlanadi, xususan, general gubernator elchisi Sh.Ibragimov ahamiyat bergan jihatlardan biri bu xonzoda Nasriddinbekning ingliz egaridan foydalanishi edi. [Туркестанские ведомости. 22 май 1872. № 20. с. 80] Rossiya imperiyasi bilan o‘zaro munosabatlar qanchalik iliqlashmasin lekin Qo‘qon rasmiylari ushbu masalada inglizlarning ham faol aktor bo‘la olishi ehtimolini eslatib o‘tish maqsad qilingan bo‘lishi mumkin edi.

1872-yil 3- mart kuni B.M.Berg va Sh.Ibragimov boshchligidagi elchilar bilan xayrlashuv tadbirlari tashkil etiladi. Ushbu jarayonda eng muhim jihat Xudoyorxonning elchilarga murojaati bo‘lib, ushbu murojaatda xon elchilardan gubernatorga o‘zining chuqur hurmatini ma‘lum qilishni, mazkur elchilik Rossiya imperiyasi va Qo‘qon xonligi o‘rtasidagi o‘zaro do‘stona aloqalarni yana bir karra mustahkamlaganligini hamda bu ikki davlat kelajakda ham bir mamlakat singari yaqin munosabatlarni saqlab qolishidan o‘zi minnatdor ekanligini ma‘lum qiladi. [Туркестанские ведомости. 22 май 1872. № 20. с. 80] Xudoyorxon tomonidan elchilarga qilingan ushbu murojaat nafaqat mazkur diplomatik missiyaga balki ayni vaqtda Peterburg-Qo‘qon munosabatlarining umumiy va yaqin kelajagini ham belgilab beruvchi voqelik sifatida qabul qilinadi.

Ammo shunga qaramasdan yana bir jihatni takidlab o‘tish lozimki, K.P.Kaufman Qo‘qon hukmdoriga har qanday holatda ham amaliy yordam berishga harakat qilmagan, xususan, 1873-yilga kelib Xudoyorxon hukmronligi ostida bo‘lgan qizg‘iz qabilalari Xo‘jand uezdi boshlig‘i Polkovnik Noldega murojaat qilib xonga qarshi qo‘zg‘olonga munosabat bildirishini so‘raydi. [Халфин, 1965: 315] Bu holat shuni ko‘rsatadiki, Rossiya-Qo‘qon munosabatlarining yomonlashuviga asosiy sabab Rus hukumati Xudoyorxonga amaliy yordam ko‘rsatmaydi aksincha Qo‘qonga qarshi qaratilgan harakat ishtirokchilari bilan muloqotga kirishadi. 1873-

yilda boshlangan qo‘zg‘olonga rus hukumati Xudoyorxonga amaliy yordam bermasdan, xonga qo‘zg‘olon xavfi haqida xabar berish bilan cheklanadi. [Почекаев, 2017: 296] Mazkur jarayonlar ortidan qisqa muddat davom etgan o‘zaro elchilik aloqalarining progressiv dinamikasi yakunlanadi.

Xulosa tariqasida aytish mumkinki, munosabatlarning 1867-1868-yillardan boshlab yaxshilanishiga birinchi davbatda Qo‘qon xonligidagi ichki siyosiy holat ya’ni Xudoyorxon o‘z hukmronligini mustahkamlash uchun imperiya bilan yaqinlashishga harakat qilishi, shuningdek, imperiyaning Markaziy Osiyo masalasidagi strategik rejalari Buxoro va Xiva xonligiga qaratilganligi sabab bo‘lgan. Shunga qaramasdan 1873-yildan boshlab Qo‘qon xonligi bilan diplomatik aloqalarda passivlik kuzatiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Галкин М. Краткая записка об исторических правах России на Кокандские города Туркестан и Ташкент. // Туркестанский сборник. — Т.: 1921.- С. 257
2. Козинцев М. А., Почекаев Р. Ю. Шахимардан Ибрагимов о дипломатическом церемониале в русско-кокандских отношениях 1870-х годов. Кунсткамера. 2022. 3(17): 20–30.
3. М. Н. Катковъ. Собрание передовыхъ статей Московскихъ ведомостей 1868 годъ. — М., изд. С. П. Катковой, 1897. — С. 808
4. Почекаев Р.Ю. Губернаторы и ханы. Личностный фактор правовой политики Российской империи в Центральной Азии: XVIII- начало XX в. —М.: изд. Дом высшей школы экономики, 2017.- С. 384
5. Пребывание в Ташкенте сына кокандского хана // Туркестанские ведомости. 7 февраля 1872. № 6. с. 27
6. Пребывание в Ташкенте сына кокандского хана // Туркестанские ведомости. 15 февраля 1872. № 7.с. 31
7. Пять дней в Коканде // Туркестанские ведомости. 22 май 1872. № 20. -с. 80
8. Топилдиев Н. Қўқон хонлигининг Россия билан дипломатик алоқалари тарихидан (XIX аср-1876 йилгача). — Т.: Фан, 2007. -128 б.
9. Туркестан в имперской политике России: Монография в документах / отв. ред. Т. В. Котюкова. — М.: Кучково поле, 2016. - С. 442
10. Халфин Н.А.Россия и ханства Средней Азии. —М.: Наука, 1974. — С.406
11. Халфин. Н.А.Присоединение Средней Азии к России. —М.: Наука, 1965. —С. 472